

YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH ORQALI JAMIYAT TARAQQIYOTINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544384>

Nurmatova Iroda

Farg‘ona davlat universiteti

Tarix fakulteti sotsiologiya kafedrası o‘qituvchisi

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda shaxsni ma‘naviy-axloqiy rivojlanishi har bir davlatning zaruriy va muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Ya‘ni, shaxs ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish jamiyat yuksalishida hal qiluvchi kuchga aylanmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ham yoshlarni qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, “Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ularning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash, ularning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash, ta‘limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta‘lim olishini ta‘minlash, hududlarda inklyuziv ta‘lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat‘iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh oilalarni ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyat olib

boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish “orqali yoshlarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini ro’yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so’zlar: *Yoshlar, vatanparvarlik, fuqarolik, tuyg‘u, bag’rikenglik, qonun, milliy, umuminsoniy, qadriyat, ta’sir, oqim, hayot, ishonch, qarash, shaxs.*

Jamiyatdagi rivojlanish shartlaridan biri jamiyat a’zolarining ma’naviy o’zgarishidir. O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi jamiyat ma’naviy qiyofasini o’zgarishi ijtimoiy yo’nalishlarda o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Jamiyatda shaxslar o’z faoliyati davomida ijtimoiy-madaniy jihatdan axloq talablariga amal qilishi zarur bo’ladi. Chunki, har qanday jamiyatni o’z qadriyatlari asosida shakllangan urf-odatlar mavjuddir. Jamiyat a’zolari o’z harakatlarining natijasida ijtimoiy-madaniy omillar asosida axloq me’yorlarini saqlab qoladi. Bu esa axloqiy me’yorlashtirishning ijtimoiy-madaniy jihatlari shaxs ma’naviyati bilan qarama-qarshilikka olib kelishga sabab bo’ladi. Shaxsiy va ijtimoiy jihatdan axloqiy rivojlanish muvozanatining bir xil emasligi jamiyatdagi axloq me’yorlariga talabni kuchaytiradi. Sababi axloq me’yorlari jamiyat taraqqiyotiga poydevor bo’lib xizmat qiladi. Bizningcha, yangi rivojlanish bosqichida axloqiy me’yorlashtirishda oila va mahallaga berilayotgan e’tibor, jamiyatda xotin-qizlarni o’qishga jalb qilish va bandligini ta’minlash hamda jamiyatdagi diniy bag’rikenlik tamoyillarini amalga oshirilishi kabi ijtimoiy-madaniy jihatlarini tadqiqot ishimizning obyekt sifatida o’rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, mahalla institutini yana-da qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonida ta’kilanganidek, “oila institutini mustahkamlash bo’yicha, eng avvalo, “Sog’lom oila — sog’lom jamiyat” g’oyasini hayotga tatbiq etishga yo’naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko’maklashishni tashkil etish”¹ jamiyatda oila muhitini sog’lomlashtirish davlat siyosati darajasidagi masala ekanligiga ko’tarilganini bildiradi. Jamiyatlarning globallashuv jarayonlari oila munosabatlariga ham ta’sir etmoqda. Insoniyat dunyosini tashkil etuvchi mutloq qadriyati sifatidagi oila munosabatlari yangi qiyofada qayta tiklanmoqda. Bu esa oila munosabatlarini jamiyat oldidagi ijtimoiy-madaniy texnologiyalar sifatida davlat siyosati darajasidagi muammolari yechimlarini bartaraf etish zaruratini anglatadi. Zamonaviy jamiyatda oila qadriyatlari axloqiy

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5938-сон Фармони Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.10.2021 й., 06/21/6324/0970-сон

me’yorlashtirishning ijtimoiy-madaniy omili butun insoniyatni hayotiy ideallari sifatida talqin etiladi. Globallashuv sharoitida inson qadr-qimmati murakkab falsafiy va axloqiy kategoriya sifatidagi oila kontekstida namoyon bo’ladi. XX asr boshida faylasuf olim V.M.Xvostov “Inson qadr-qimmati etikasi” asarida, inson qadr-qimmati muammosini o’rganib chiqadi, inson hayotining qadr-qimmati masalasida oila muhim o’ringa ega ekanligini ta’kidlaydi. Jumladan, “insonning qadri muammoning psixologik tomonini, ya’ni oiladagi shakllangan burch va ma’suliyat tajribasi axloqiy tamoyillarning asosidir,² – deb oila munosabatida axloq inson qadri boshlang’ich nuqtasi sifatida baho beradi. Shuningdek, faylasufi P.S.Boranetskiy “Inson qadr-qimmati u tomonidan qahramonlik etikasi kontekstida tushuniladi va uning amalga oshirilishi insonning axloqiy qadriyatlarga yo’naltirilgan faol, ijodiy kuchlarini amalga oshirish orqali ko’rinadi,³ – deb ta’kidlaydi. Bu esa axloqiy qadriyatlar shakllanadigan joy oilada shaxs va jamiyat uchun muhim ekanligini anglatadi.

“Yangi O‘zbekiston – kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, madadga muhtoj insonlar va oilalarga chinakam ko‘mak va yordam berish, mehr-oqibat ko‘rsatish hayotimiz qoidasiga aylanib borayotgan ijtimoiy makondir⁴”. Tadqiqotchilar nazarida yangi rivojlanish bosqichida axloqiy me’yorlashtirishning ijtimoiy jihatlari quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab oladi. “Iqtisodiy bilimlar berish; xo‘jalik yuritishni tashkil etish; axloqiy normalar, talablar, qoidalarni o‘rganish, eng yuksak axloq fazilatlarini shakllantirish; kasb-hunar o‘rgatish; mehnatni to‘g‘ri, qiziqarli, moddiy va ma’naviy foydali etib tashkil etish; nozik estetik didni san’atning barcha turlari orqali shakllantirish, uyni, uy jihozlarini zamonaviy dizayn qonunlariga asoslanib qurish va bezash; huquqiy bilimlarga ega bo‘lish, oilada adolatga, teng huquqlilikka, mustaqillikka erishish; diniy ta’lim berish, Qur’onni, islomning axloqiy asosi bo‘lgan hadislarni o‘rganish; jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzini barpo etish; farzandlarni oila qurishga tayyorlash, jinsiy tarbiya, er va xotin burch-vazifalarini o‘rgatish; tibbiy bilimlar olish, shaxsiy gigiyenaga rioya etish, uyning, uy jihozlarining sanitariya holatiga ahamiyat berish, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni bilish, xalq tabobatini o‘rganish; nafs tarbiyasi, barcha narsalarda: ovqatlanish, kiyinish, axloq-odobda me’yor bo‘lishi zarurligiga erishish; ruhiy emotsional tarbiya, doimo ruhiy tetiklikka, faollikka, teranlikka, o‘zini idora etishga, jahlni jilovlay bilish, o‘zini ortiqcha urintirmay sokinlik va muloyimlikka, boshqalarga yomon ta’sir o‘tkazmaslikka o‘rganish kabilarni⁵” ko‘rsatish mumkin. Bizningcha, yuqoridagi

²Хвостов В.М. Этика человеческого достоинства. Критика пессимизма и оптимизма / Изд. 3-е. стереотипное. - М.: КомКнига, 2007. – С. 176.

³Борапецкий П.С. О достоинстве человека: Основания героической этики. – Париж: 1950. – С.768.

⁴Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 27.

⁵Нажмидинова Каримахон Усмоновна. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлокий маданиятнинг ўрни. – Тошкент: “Адолат”, 2016. – Б. 37.

qarashlardan kelib chiqqan holda jamiyat taraqqiyotining yangi rivojlanish bosqichida axloqiy me’yorlashtirishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini quyidagilar:

birinchidan, muloqot texnologiyasi (ota-onalarni farzand bilan muloqoti);

ikkinchidan, o‘rnak bo‘lish texnologiyasi (namuna bo‘la olish sifatida);

uchinchidan, to‘g‘ri, adolatli baholash (voqea hodisalarni to‘g‘ri adolatli baholash-farzandlarni katta-kichikka ajratmaslik misolida);

to‘rtinchidan, oila kutubxonasi tashkil etish (oilaviy kitobxonlik madaniyatini shakllantirish);

beshinchidan, muzeylarga yoki muqaddas qadamjoylarni ziyorat qilish;

oltinchidan oilaning yaqin qarindosh-urug‘lari holidan xabar olib turish (hozirda bu jarayon noyob bo‘lib ketmoqda) kabilarni keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, jamiyatdagi muhim ijtimoiy-madaniy munosabatlarning asosi xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ularga har tamonlama jamiyat manfaatlariga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish davlat va jamiyat strategiyasining ustuvor vazifasidir. Bu borada 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 210-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlari kabi huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

“Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”⁶. Shuning uchun ham shaxs ma’naviy-axloqiy jihatlarini yuksalishi yoshlarning barkamol avlodli qilib tarbiyalash hamda aholi farovonligini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Xotin-qizlarni jamiyatning to‘laqonli a’zolari sifatida qabul qilmasdan, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uni taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, oxir-oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog‘liqdir”⁷, – degan fikrlari ham zamonaviy jamiyatda dolzarb ekanligini bildiradi. Yosh avlodning tarbiyasi, asosan, ayollar

⁶ Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир / Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Халқ сўзи газетаси, 2020 йил 1 октябрь сон.

⁷ Маҳмудхўжа Бехбудий Хифзи сиҳати оила // Ойна, 1914. – 53-сон.

zimmasidagi vazifa bo‘lganligi sababli jamiyatda hamma davrda ham ayollarni o‘qimishli bo‘lishi zaruriy ehtiyoj hisoblangan.

Anbar Otin shaxs axloq darajasini ilm-ma’rifatlilik bilan bog‘laydi va ijtimoiy taraqqiyotda axloqiy yuksaklik darajasi ekanligini yoqlaydi. Taraqqiyparvar shoira o‘z davrining ijtimoiy-axloqiy illatlarini hurlik, tenglik zamonlari kelishi bilan yakun topishiga katta ishonch bildiradi. Anbar Otin “Bir zamoni bo‘lurki, kamina mushtipar kabi oliyjanob orzu qilg‘ondan ziyoda bo‘lur... alarni mazlumalar avlodi xatarsiz tavallud o‘lub, yaxshi parvarish topub, xushro‘y bo‘lamiz va vatando‘st, serg‘ayrat-u mehmondo‘st bo‘lub, kamolg‘a yetur. Ul zamonda barcha xalq sohibjamol bo‘lur...

Ul zamonda odam axloqi ul darajag‘a yeturki, xurusi mijoz gala xotunlik rusumini tark etar va har er bitta xotin ila farog‘atvor kun kechirg‘ay...

Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig‘a muyassar bo‘lub, urfon taxtida qaror topib, ellar va ulug‘lar safig‘a doxil bo‘lurlar, alar hayrat va mehnatda erlarg‘a hamfo va yovar bo‘lub, obro‘ topib, hurmat va ikromg‘a sazovor bo‘lurlar”⁸, deydi. Hozir Anbar Otin aytgan kunlar keldi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat, iste’dod va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, bir so‘z bilan aytganda, ularni jamiyatning teng huquqli, faol va bunyodkor a’zosiga aylantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Vatanimizda ayolni ulug‘lash, uni ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatdagi nufuzini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlar va ular asosida olib borilayotgan islohotlarni xotin-qizlarni samarali ijtimoiy himoya qilish va faollashtirishning innovatsion modeli sifatida talqin etish mumkin⁹. Bu esa jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlar erkinligi va ularning o‘z iste’dodlarini ochib berish uchun berilayotgan imkoniyatdir. Qolaversa, jamiyatda ayollarning obro‘sin oshirish orqali axloqiy munosabatlarni me’yorlashtirishda ayollarning o‘rni yuqori ekanligidan dalolatdir.

“Ayolni e’zozlash – ezgulik va adolat mezon”, – degan g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida aholimizning qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish, iste’dodi va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish davlat siyosatining markaziga qo‘yildi¹⁰”. Bizningcha, ayollarning ilm egasi bo‘lishlari oiladagi bola tarbiyasi, ya’ni yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga

⁸ Анбар Отин. Танланган асарлар. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б. 95.

⁹ Нарбаева Танзила Камаловна. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели. Социолгия фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси Автореф. Тошкент: 2020. – Б. 4.

¹⁰ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2021. – Б. 53.

egadir. Ziyoli va ilg‘or ayollar nafaqat oilada, balki jamiyatda ham axloqiy-tarbiyaviy masalalardagi muammolarni yechishga katta hissa qo‘shadilar.

“Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi”¹¹, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini zaruriy sharti sifatida joylardagi hokimliklar, xotin-qizlar qo‘mitalari, mahalla qo‘mitalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining doimiy, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatini tashkil etilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi” 2020-yil 23-iyundagi 402-son Qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar qiritish haqida”gi Qarori qabul qilindi. Unda ta’kidlab qo‘yildiki, ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish tartibini joriy etiladi;

oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma beriladigan kam ta’minlangan oila tushunchasi mezonlarini aniqlashtiriladi;

tavsiyanoma olish uchun talabgor ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga elektron shaklda murojaat qilish imkoniyatini beriladi;

oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma beriladigan xotin-qizlar doirasini kengaytiriladi;

tavsiyanoma berish masalasini ko‘rib chiqish jarayonini Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasining “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi, “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi bilan bog‘lanadi;

oilaning ehtiyojmandlik darajasi “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning qiz farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar orqali aniqlash tartibi joriy etiladi¹². Bu bilan ayollarning

¹¹ <https://xs.uz/uzkr/post/k> хотин-қизлар-учун-улкан-имкониятлар-белгиланди. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 1 март куни хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизими ҳамда уларнинг жамиятдаги мавқеини янада мустаҳкамлаш масалалари бўйича видеоселектор йиғилишидаги маърузаси.

¹²Қонунчилик маълумотлар миллий базаси: 09/21/338/0513-сон 03.06.2021 й.

turmushdagi o‘rni, oilaviy vazifalari munosib javob bo‘la oladi. Jamiyatdagi bunday munosabatdan faqat va faqat jamiyat a‘zolari yutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нарбаева Т.К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели. Социолгия фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси Автореферати. Тошкент. 2020. – Б 72.
2. Қаххорова М.М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация Автореферати Тошкент. 2012. – Б 48.
3. Юлдашева Ф.Х. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгилашнининг ўзига хос хусусиятлари. Фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019. – Б.30.
4. Акрамов Ф.Х. Социал капитал аҳоли турмуш сифатини оширишнинг омили сифатида. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. Тошкент. 2021. – Б 47.
5. Арзиматова И. Шахс эстетик маданияти юксалишида ижтимоий-маънавий омилларнинг ўрни. Фал.ф.н ёзил..диссертация 2010. – Б 147.
6. Бафаев М.М. Глобаллашув жараёнида миллий бағрикенгликни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик детерминантлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2020. – Б 44.
7. Бойтемирова З. Шахс ахлоқий эҳтиёжларини шакллантириш омиллари: Фал. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: И.М. Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008. – 26 б.
8. Заладина М.В. Социально-философский анализ духовного отчуждения: Дис ... филос. кан. наук –М: Нижний Новгород, 2020. –155 с.